


Buxoro viloyatida **qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi** **2025- yil yanvar - sentabr oylari uchun**

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Buxoro viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025 - yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 33 243,8 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 32 974,5 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 157,3 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 111,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

Buxoro viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025 - yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (4 036,1 mlrd so'm), Buxoro (3 779,1 mlrd so'm), G'ijduvon (3 716,9 mlrd so'm), Qorako'l (3 320,3 mlrd so'm), Romitan (3 226,0 mlrd so'm) va Peshku (3 016,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (108,0 mlrd so'm), Buxoro shahar (469,9 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (942,6 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Buxoro viloyati	33 243,8	104,7
Buxoro shahar.	469,9	129,2
Kogon shahar	108,0	102,2
Olot tumani	2 393,9	104,2
Buxoro tumani	3 779,1	103,5
Vobkent tumani	2 943,1	104,6
G'ijduvon tumani	3 716,9	104,3
Kogon tumani	2 297,0	101,8
Qorako'l tumani	3 320,3	104,4
Qorovulbozor tumani	942,6	106,6
Peshku tumani	3 016,7	108,1
Romitan tumani	3 226,0	104,4
Jondor tumani	4 036,1	102,5
Shofirkon tumani	2 994,2	105,9

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (129,2 %), Peshku (108,1 %), Qorovulbozor (106,6 %), Shofirkon (105,9 %), Vobkent (104,6 %) va Qorako'l (104,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Kogon (101,8 %), Kogon shahar (102,2 %), Jondor (102,5 %), Buxoro (103,5 %), Olot (104,2 %), G'ijduvon (104,3 %) va Romitan (104,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025 - yilning yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 32 692,9 mlrd so'mni yoki 2024 yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 14 348,9 mlrd so'mni (108,3 %), chorvachilik mahsulotlari 18 344,0 mlrd so'mni (101,1 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (3 976,8 mlrd so'm), Buxoro (3 736,9 mlrd so'm), G'ijduvon (3 647,4 mlrd so'm) va Qorako'l (3 267,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (101,9 mlrd so'm), Buxoro shahar (452,1 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini (910,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (127,0 %), Peshku (108,1 %), Qorovulbozor (106,6 %) va Shofirkon (105,7 %) tumanlarida qayd etildi. Kogon (101,7 %), Kogon shahar (102,0 %) va Jondor (102,4 %) tumanida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,5 % i fermer xo'jaliklariga, 4,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi G'ijduvon (2 214,6 mlrd so'm), Jondor (2 122,5 mlrd so'm), Buxoro (1 933,5 mlrd so'm), Qorako'l (1 914,0 mlrd so'm) va Kogon (1 684,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (97,4 mlrd so'm), Buxoro shahar (254,4 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumanini (407,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (129,1 %), Qorovulbozor (103,3 %) tumanlarida va Kogon shaharda (102,7 %) qayd etildi. Shofirkon (100,1 %), Qorako'l (100,4 %), Buxoro (100,4 %), Vobkent (100,6 %), G'ijduvon (100,7 %), Jondor (100,8 %), Olot (100,9 %), Romitan (101,1 %), Kogon (101,2 %), va Peshku (101,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 221,7 ming tonna go'sht, 797,7 ming tonna sut, 429,3 mln dona tuxum, 3 446,0 tonna qirqib olingan jun, 510,4 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 3,9 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni, sog'ib olingan sut – 100,2 % ni, olingan tuxum – 102,0 % ni, qirqib olingan jun – 103,4 % ni, olingan qorako'l teri – 102,8 % ni hamda ovlangan baliqlar – 102,8 % ni tashkil qildi.

2025 - yil yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 6,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 85,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 7,5 % i fermer xo'jaliklari, 91,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025 - yil yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-sentabr 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	221,7	102,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	14,2	107,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	189,3	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	18,2	119,7
Sut, ming tonna	797,7	100,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	59,9	103,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	727,9	99,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,9	118,3
Tuxum, mln. dona	429,3	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	94,6	102,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	206,5	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	128,2	103,5
Jun, tonna	3 446,0	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	531,0	107,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 620,0	101,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	295,0	113,9
Qorako'l teri, ming dona	510,4	102,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	58,4	107,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	420,5	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	31,5	107,8
Baliq, tonna	3 900,2	102,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 325,2	99,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	386,0	108,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 189,0	104,2



Shu bilan birga, olingan tuxumning 22,0 % i fermer xo'jaliklariga, 48,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 15,4 % i fermer xo'jaliklari, 76,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 8,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 11,4 % i fermer xo'jaliklariga, 82,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 34,0 % i fermer xo'jaliklariga, 9,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 56,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Buxoro viloyati	221 676	797 653,0	429 305,0
Buxoro shahar.	4 956,6	3 634,6	5 536,2
Kogon shahar	2 214,5	268,1	526,4
Olot tumani	16 261,4	56 877,5	18 702,0
Buxoro tumani	22 738,4	91 968,8	35 943,0
Vobkent tumani	17 974,5	85 438,1	31 794,9
G'ijduvon tumani	26 644,7	91 709,4	38 644,6
Kogon tumani	23 709,1	40 482,8	75 593,3
Qorako'l tumani	22 537,4	82 445,0	45 465,1
Qorovulbozor tumani	5 724,3	14 930,0	10 576,4
Peshku tumani	17 289,7	71 893,4	21 552,1
Romitan tumani	18 616,6	75 973,4	22 033,8
Jondor tumani	24 998,4	93 156,3	100 922,4
Shofirkon tumani	18 010,4	88 875,6	22 014,8



Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jondor (1 854,4 mlrd so'm), Buxoro (1 803,4 mlrd so'm), Romitan (1 588,6 mlrd so'm), Peshku (1 478,4 mlrd so'm) va G'ijduvon (1 432,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahar (4,5 mlrd so'm), Buxoro shahar (197,7 mlrd so'm) va Qorovulbozor tumani (502,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (124,8 %), Peshku (114,1 %), Shofirkon (111,8 %), Qorako'l (109,3 %), Qorovulbozor (108,9 %), Vobkent (108,8 %), G'ijduvon (108,7 %) va Olot (108,2 %) tumanlarida qayd etildi. Kogon shahar (89,6 %), Kogon (103,0 %), Jondor (103,8 %), Buxoro (106,1 %) va Romitan (107,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 632,9 ming tonna don, 278,7 ming tonna kartoshka, 939,5 tonna sabzavot, 150,9 tonna poliz, 266,7 tonna meva rezavorlar va 184,7 ming tonna uzum yetishtirilgan.

Hisobot davrida yetishtirilgan don hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ni, kartoshka – 100,2 % ni, jami sabzavotlar – 108,8 % ni, oziqbob poliz – 112,0 % ni, meva va rezavorlar – 106,0 % ni hamda uzum – 101,7 % ni tashkil qildi.

2025 - yil yanvar- sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan donning umumiy hajmidan 72,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 20,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda yetishtirilgan kartoshkaning 15,0 % i fermer xo'jaliklari, 83,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, yetishtirilgan sabzavotlarning 15,0 % i fermer xo'jaliklariga, 83,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, yetishtirilgan polizning 26,2 % i fermer xo'jaliklari, 73,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, yetishtirilgan meva va rezavorlarning 53,6 % i fermer xo'jaliklariga, 44,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, yetishtirilgan uzumning 50,5 % i fermer xo'jaliklariga, 48,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.



**2025 - yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy
turdagi dehqonchilik mahsulotlari**

	Yanvar-sentabr 2025 y.	O'sish sur'ati % da
Jami don, ming tonna	632,4	111,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	455,5	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	127,6	153,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	49,3	104,7
Kartoshka, ming tonna	278,7	100,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	41,7	112,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	232,4	97,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,6	148,7
Sabzavotlar jami, ming tonna	939,5	108,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	141,1	106,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	781,1	109,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,3	101,7
Poliz, ming tonna	150,9	112,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	39,5	113,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	110,7	111,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,7	107,7
Meva va rezavorlar, ming tonna	266,7	106,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	142,9	108,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	117,4	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,4	2,0 m.
Uzum, ming tonna	184,7	101,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	93,3	102,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	88,8	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,6	146,0



**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Jami don, tonna</i>	<i>Sabzavotlar, tonna</i>	<i>Meva va rezavorlar, tonna</i>
Buxoro viloyati	632 399,4	939 494,8	266 673,8
Buxoro shahar.	3 672,6	23 459,6	2 890,6
Kogon shahar	-	417,9	55,0
Olot tumani	52 389,4	69 345,8	9 665,1
Buxoro tumani	44 548,1	129 508,7	37 936,0
Vobkent tumani	57 222,3	71 577,4	25 107,0
G'ijduvon tumani	58 035,4	96 107,6	26 669,9
Kogon tumani	31 201,0	33 893,8	6 753,7
Qorako'l tumani	61 199,9	108 271,6	19 347,0
Qorovulbozor tumani	46 122,8	25 015,9	3 650,8
Peshku tumani	64 107,1	100 666,4	26 843,1
Romitan tumani	70 093,3	105 291,5	27 606,3
Jondor tumani	84 418,4	93 644,4	54 517,1
Shofirkon tumani	59 389,1	82 294,2	25 632,2



**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari hajmi**

	<i>Kartoshka, tonna</i>	<i>Poliz, tonna</i>	<i>Uzum, tonna</i>
Buxoro viloyati	278 681,5	150 866,0	184 742,8
Buxoro shahar.	2 141,9	1 081,0	899,2
Kogon shahar	413,7	-	0,9
Olot tumani	22 926,8	18 884,4	5 097,9
Buxoro tumani	37 483,9	16 281,2	37 185,9
Vobkent tumani	27 218,7	7 605,1	18 065,5
G'ijduvon tumani	27 083,1	9 189,1	20 341,2
Kogon tumani	24 534,8	2 461,3	3 267,7
Qorako'l tumani	19 136,2	15 450,5	13 499,8
Qorovulbozor tumani	3 288,5	17 222,4	1 434,5
Peshku tumani	35 720,2	23 387,1	12 657,1
Romitan tumani	27 221,4	14 205,0	21 249,6
Jondor tumani	34 535,3	17 356,1	27 881,8
Shofirkon tumani	16 977,0	7 742,8	23 161,7



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025 - yilning 1- oktabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 386,0 ming boshga yetdi, (2024- yilning 1- oktabr holatiga nisbatan 1,1 % ga ko'p), sigirlar 449,1 ming boshga (0,5 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 515,4 ming boshga (2,0 % ga ko'p), parrandalar 8 581,0 ming boshga (5,3 % ga ko'p) yetdi.

2025 - yilning 1- oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 386,0	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	125,3	105,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 231,3	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	29,4	111,4
shundan sigirlar	449,1	100,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	43,4	105,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	396,9	99,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,8	118,9
Qo'y va echkilar	2 515,4	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	469,1	104,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 843,4	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	202,9	108,1
Otlar	9,0	109,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,5	118,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3,0	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,5	104,5
Parrandalar	8 581,0	105,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 120,7	102,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 971,8	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 488,5	112,3



2025 - yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,7 % i fermer xo'jaliklariga, 88,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 18,6 % i fermer xo'jaliklariga, 73,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 24,7 % i fermer xo'jaliklariga, 34,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 40,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025 - yilning 1- oktabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni, (ming bosh)**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Buxoro viloyati	1 386,0	2 515,4	8 581,0
Buxoro shahar.	7,0	21,8	223,2
Kogon shahar	1,6	4,2	194,0
Olot tumani	121,1	239,8	289,2
Buxoro tumani	130,2	175,7	1 039,3
Vobkent tumani	117,9	112,9	559,6
G'ijduvon tumani	164,7	323,9	1 172,2
Kogon tumani	93,9	98,3	1 030,3
Qorako'l tumani	156,3	293,3	457,7
Qorovulbozor tumani	23,8	168,8	259,7
Peshku tumani	138,1	285,2	247,5
Romitan tumani	137,4	211,9	623,2
Jondor tumani	141,9	360,6	2 098,8
Shofirkon tumani	152,1	218,9	386,4



V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Shodiyev
65 223-44-45 (81-10)